

**TERMIZ TARIXIY TOPONIMIKASI.  
ИСТОРИЧЕСКАЯ ТОПОНИМИКА ТЕРМИЗА.  
HISTORICAL TOPOONYMY OF TERMIZ.**

**Botirova Manzura Abdunabiyyevna**

*Termiz arxeologiya muzeysi katta ilmiy xodimi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Termizning ko'p ming yillik tarixi, boy madaniyati hamda tarixiy toponomikasini shakllanishida ko'plab sizilizatsiyalar va madaniyatlar chorrahasida joylashganligi haqida atroflicha ma'lumot beriladi. Shuningdek, muhim strategik manzilda ekanligi hamda savdo-sotiqligini, ilmu-fan rivojida tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *TAKE, Tarmita, Drmat, Tami, Oks, Okuz, Vaxsh, "Taro-maetho"*

**Аннотация:** В данной статье представлена подробная информация о многотысячелетней истории, богатой культуре и исторической топонимике Термеза, расположенного на стыке многих цивилизаций и культур. Также говорят, что он находится в важном стратегическом месте и занимает свое место в развитии торговли и науки.

**Ключевые слова:** *TAKE, Тармита, Дрмат, Тами, Окс, Окуз, Вахши, «Таромаэто»*

**Annotation:** This article provides detailed information about the many thousand-year history, rich culture and historical toponymy of Termiz, which is located at the crossroads of many civilizations and cultures. It is also said that it is in an important strategic location and its place in the development of trade and science.

**Keywords:** *TAKE, Tarmita, Drmat, Tami, Ox, Okuz, Vakhsh, "Taro-maetho"*

**Kirish.** Surxondaryo viloyatining qadimgi tarixiy toponimlaridan biri-Termiz hisoblanadi. Termiz atamasining paydo bo'lishi bevosita miloddan avvalgi VI-IV asrlar oralig'ida hozirgi Termizdan 7 km janubi-g'arbda Amudaryoning o'ng qirg'og'ida shakllangan dastlabki aholi manzili bilan bog'liq<sup>19</sup>. Termiz nomining kelib chiqishini aksariyat mualliflar bevosita qadimgi Baqtriya so'zi "taro maetho"- "daryoning narigi sohilidagi manzil" degan ma'noni anglatishini yakdillik bilan qo'llaydilar. Bunday fikr ilk bora avstriyalik olim V. Tomashek tomonidan bildirilgan<sup>20</sup>. Miloddan avvalgi 328 yilning bahoridan ya'ni makedoniyalik Aleksandrning So'g'dga so'g'diy va baqtriyaliklarning qo'zg'olonini bostirish maqsadida boshlagan yurishidan so'ng Tarmita (Termiz) nomida jiddiy o'zgarishlar ro'y bergan. O'rta Osiyo hududida antik davr an'analariga ko'ra makedoniyalik Aleksandr asos solgan shaharlardan biri "Oks bo'yidagi Aleksandri" deb atalgan.

<sup>19</sup> Шайдуллаев Ш., Аннаев Т. Два новых пункта раннекемзного века на юге Узбекистана. //Узбекистонда ижтимоий фанлар. 1989, 5, – С. 1-34.

<sup>20</sup> Tomaschek W. Gentralfasiatische Studien. Sogdiana Wien. 1877, s.91.

XV asrda yashab o'tgan taniqli geograf Hofiziy Abruning yozishicha, Termizga Iskandar Zulqarnayn asos solgan<sup>21</sup>. Ingliz tarixchisi V. Tarn Termiz tarixiga oid ma'lumotlarning barchasini har tomonlama tahlil qilib, "Oks bo'yidagi Aleksandri" Termiz o'rnida mavjud bo'lgan degan xulosaga keladi<sup>22</sup>.

Arxeolog olimlar xususan T. Annaev, J.Annaev<sup>23</sup>lar tomonidan Eski Termiz va uning atrofida makedoniyalik Aleksandr yurishigacha odamlar yashaganligini, qishloqlar mavjud bo'lganligini isbotlovchi talay dalillar to'plangan. Bu kabi dalillarga asoslanib, bu arxeolog olimlar ta'riflaydilarki makedoniyalik Aleksandr Tarmita-Termiz o'rnida mavjud bo'lgan manzilni kengaytirgan, mustahkamlagan va uni o'z nomi bilan atagan.

Miloddan avvalgi 323 yilda makedoniyalik Aleksandr vafotidan so'ng uning ulkan imperiyasida bo'lgani kabi, O'rta Osiyoda ham siyosiy vaziyat keskinlashadi. Bu bir tomonidan, diadoxlarning hokimiyat uchun kurashi hamda joylardagi yunon-makedonlarning o'z yurtlariga qaytish maqsadida ko'tarilgan g'alayonlar bilan bog'liq edi. Boshqa bir tomondan esa ko'chmanchi chorvador oholini dehqonchilik vohalariga yurishlari bilan bog'liq edi. Ular davlat ichida yuzaga kelgan barqarorlikdan foydalanib, harbiy yurishlarni jadal amalga oshira boshlaganlar. V. Tarnning fikricha, Termizning taqdiri ham shunday kechgan, u miloddan avvalgi 329 yillar atrofida ko'chmanchilar tomonidan vayron etilgan. Biroq salavkiylar podshohi Antioh I shaharni tez orada tikladi va unga Antioxiya deb o'z nomini berdi. Ravennalik noma'lum geografning milodiy VII asrga oid xaritasida ham "Pevtinger jadvallari"da uning nomi Antioxiya-Tarmita shaklida eslatib o'tilganligining o'ziyoq shu fikrni tasdiqlaydi. Ma'lumki, bu xarita antik davr ma'lumotlari asosida tuzilgan va unda shahar nomi eslatib o'tilishi Salavkiylar davrida Tarmita (Termiz) ancha yirik aholi manzili bo'lganligini ko'rsatadi<sup>24</sup>.

### **Asosiy qism.**

Eski Termizning Kushon podsholigi davri yirik buddaviylik monastirlari majmui Qoratepada o'rta fors bitigida so'z V.Xenning tomonidan Antioxiya-Tarmita deb o'qilgan<sup>25</sup>.

Kushon podsholigi davrida ( milodiy I-III asrlar o'rtasi) shaharlar hududiy kengayishi va taraqqiyoti bilan bir qatorda uning asl qadimiy nomi tiklanadi va shahar aksariyat hollarda Tarmita deb yuritila boshlanadi. Tibet buddaviy kolofonida Kushon podsholigi davri buddaviy matnnini tibet tiliga ko'chirgan muallif Vaxshu daryosi sohilidagi Tarmita shahridan chiqqan Dxarmamitra deb ta'kidlangan<sup>26</sup>.

<sup>21</sup> Бартольд В.В. Хофиз-и Абру и его сочинения. Т. VII, М., Наука 1973, – С. 74-97.

<sup>22</sup> Пидаев Ш. Қадимий Термиз. Т., Фан, 2001, – Б.8-9.

<sup>23</sup> Annaev J. New data on the historical geography of old Termez and its vicinities // Archaelosie in Irap and Turan. Band 17. Berlin 2018. Pp.215-222

<sup>24</sup> Пидаев Ш. Р. Тармита-Термиз 1220 йилгача: шаҳарнинг келиб чиқиши ва тадрижий ривожланиши// Термиз-буюк йўллар чорраҳасидаги кўхна ва янги шаҳар. – Т., Шарқ, 2001, – Б.12-15.

<sup>25</sup> Луконин В.Г. Среднеперсидские надписи из Каратепе // Буддийские памятники на Кара-тепе в Старом Термизе. – М., Наука, 1969. – С.16.

<sup>26</sup> Ставиский Б. Я. Кушанская Бактрия. М., Наука 1977, – С. 89.

## STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

Ilk o‘rtasrlar davri hususan III-IV asrlar arman manbalarida bu shahar Drmat<sup>27</sup> va xitoy manbalarida, xususan 630 yilda Termizda bo‘lgan buddaviy kohin-sayyoh Syuan Dzan tafsilotlarida bu shahar Ta-mi tarzida bitilgan<sup>28</sup>. Ta’kidlash joizki, bu ikki atamada ham Tarmitaga xos jarangdoshlik va unga o‘xshashlik kuzatiladi.

Arablar ilk bora Termiz hududiga 676 yilda kirib kelganlar. 689 yili Termizni isyonkor Xuroson noibi Abdulloh ibn Xozimning o‘g‘li Muso ibn Abdulloh bosib oladi va qariyb 15 yil davomida unda hukmronlik qiladi<sup>29</sup>. Bu voqealar tafsiloti at-Tabariyning “At-Tarix” asarida bayon etilgan va ayni shu VIII asrdan shahar nomi “Tirmiz” shaklida talaffuz etilgan va yozilgan.

Bu fikrni yozma manbalarda “Tirmiz” nomi bilan bir qatorda bu shaharda VIII asrda tug‘ilib voyaga yetgan buyuk siymolar nisbasi ham tasdiqlaydi. IX-X asr Turkiston tasavvuf tariqatining ilk namoyondasi termizlik Muhammad Hakim Tirmiziyning otalari ham Tirmiziy nisbasiga ega bo‘lgan (Ali ibn Tirmiziy). Muhammad Hakim Tirmiziy otalari VIII asrning ikkinchi yarmida tavallud topganlar<sup>30</sup>. Bu kabi ishonchli manbalarga asoslanib ta’kidlash joizki, VIII asr davomida shahar “Tirmiz” shaklida talaffuz etilgan va yozilgan. Sh.Pidaev ta’kidlashicha IX-XI asrlarga oid arab-fors manbalarida shaharning nomi ko‘pincha “Tarmid”, “Tarmiz” va “Tirmiz” shaklida bo‘lgan.<sup>31</sup> Bu boroda XII asrning taniqli tarixchisi, adibi va hadisshunosi Abu Saad Abdalkarim ibn Muxammad as-Sam’oniyning “Kitob al-Ansab” (“Nisbalar kitobi”)dagi ma’lumotlar muhimdir. Ayniqsa as-Sam’oniyning Termizda 12 kun yashaganligini hisobga olsak uning ma’lumotlari juda ishonchlidir. As-Sam’oniya ko‘ra, adabiyotda shaharni Tirmiz ba’zan Turmiz shaklida yozish qabul qilingan. Mahalliy aholi esa shaharni Tarmiz shaklida talaffuz qilgan<sup>32</sup>

XIV asrda zarb etilgan tangalarda Termizga “Madinat-ul rijol ” ya’ni “erlar shahri” degan ibora ham qo‘llanilgan<sup>33</sup>. Termiz bu nisbaga o‘z aholisining 1220 yilning kuzida qahramonona kurashi tufayli sazovor bo‘lgan.

XIII asrning 20-yillaridan Termiz Chingizzon qo‘sishinlari tomonidan vayronaga aylantirib, shahar sharqqa Chag‘onrud (Surxondaryo)ning o‘ng qirg‘og‘iga ko‘chgan bo‘lsada, bu shahar o‘z nomini saqlab qoldi. Bu haqda 1333 yilda Termizda bo‘lgan mashhur sayyoh Ibn Battuta shunday deb yozgan “Eski Termiz shahri Jayhun bo‘yida barpo etilgan edi. Chingiz bu shaharni vayron etgandan so‘ng yangi shahar (Termiz - A.T., B.S.)ni ikki chaqirim narida qurishgan. Bu shaharda gavjum bozorlar va

<sup>27</sup> Тер-Мкртычев Армянские источники о Средней Азии V-VII вв. – М., Наука, 1979, – С.97.

<sup>28</sup> Куидзо К. Термез и Тохаристан по сведениям китайского путешественника Сюань Дзана// Термиз шахрининг жаҳон цивилизациясида тутган ўрни. – Т., Фан, 2001. 106-108 бетлар.

<sup>29</sup> Пидаев Ш.Р. Термизшоҳ фожеаси// Термиз: тарихий тадқиқотлар илмий хуносалар. – Т., Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти. 2001, – Б. 23-27.

<sup>30</sup> Чориев З.,Аннаев Т.,Муртазоев Б.,Аннаев Ж. Ал-Ҳаким ат-Термизий. – Т. Янги аср авлоди, 2008, – Б. 73-81.

<sup>31</sup> Пидаев Ш. Қадимий Термиз, – Т.,Фан, 2001, – Б.5.

<sup>32</sup> Камолиддинов Ш.С. “Китаб ал-Ансаб” Абу Съода Абдалкаrima ibn Мухаммада ас-Саъманি как источник по истории и культуры Средней Азии. – Т.,Фан, 1993, – С.54-56.

<sup>33</sup> Пидаев Ш.Р. Кўхна Термиз тўнглари // – Т.,Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашрёти. 2001, – Б. 17-22.

## STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

muhtasham imoratlar bo‘lib, uni ko‘plab anhorlar kesib o‘tadi, unda bog‘-rog‘lar mo‘l.’<sup>34</sup>

1404 yilda sohibqiron Amir Temur saroyiga Kastiliya qiroli Genrix III nomidan elchi bo‘lib kelgan Rui Gonsales de Klavixo kundaligida bu shahar Tarmit deb nomlangan<sup>35</sup>. XIV asrda Termizda Chag‘oniyon va Navandlar bilan birgalikda zarbxona bo‘lib, bu shaharda ham Amir Temur va Temuriylar davlatida muomalada bo‘lgan tangalar zARB etilgan<sup>36</sup>. Shu tariqa XVIII asrga qadar Termiz o‘z nomini saqlab, tangalar zARB etib keldi.

XVIII-XIX asrlarda shahar o‘zining oldingi mavqeい va ahamiyatini yo‘qotgan. XIX asr oxirida Surxondaryoning o‘ng qirg‘og‘ida Amudaryoga quyilish joyida Pattakesar qishlog‘i yuksala borgan. Shu tariqa XIX asrning ikkinchi yarmidan to 1928 yilga qadar hozirgi Termiz hududi Pattakesar deb yuritilgan. Manbalarda Pattakesar nomining etimologiyasi haqida ikki xil fikr bor. XIX asrga kelib Surxondaryoning Amudariyoga quyilish joyidan Qorakamargacha Pattakesar, Sho‘rob, Cho‘chqaguzar, Qorakamar kabi guzarlar mavjud bo‘lib, bu guzarlar orqali Amudaryo bo‘ylab odamlar va yuklar tashilgan. Patta qayiqqa tushgan yo‘lovchi yoki yuk haqqi chiptasi, kesar esa tekshirilgan chiptani yirtib tashlash. Shuningdek bu mavzeda ya’ni Amudaryo o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab mahalliy tilda “Patta” deb nomlangan o‘simplik ko‘plab o‘sgan. Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi ekin maydonlari va uy-joylarga yaroqli yerlar “Patta” daraxtidan tozalangan va ekin maydoniga aylantirilgan.

Pattakesar XIX asrning oxiridan 1928 yilga qadar hozirgi Termizning nomi. 1928 yildan shahar nomi Termiz deb qaytadan yuritila boshlagan.

VIII asrdan XIX asrga qadar yozma manbalarda Termizga yaqin mavzelarda mavjud bo‘lgan quyidagi tarixiy joy nomlari tilga olingan. Bular “Usmon Oroli” (“Jazirati Usmon, hozirgi “Orol Payg‘ambar”), Maymurg, Ruxshabuz, Sulton-Sodot, Salovat va Jarminkon (hozirgi “Jarqo‘rg‘on”) kabilardir.

Amudaryo (qadimgi turkiyda O‘kuz, yunon manbalarida Oks, baqtriya tilida Vaxshu, arabchada Jayhun)da Eski Termizning ro‘parasida joylashgan orolning “Jazirati Usmon” ya’ni “Usmon oroli” deb nomlanishi bevosita arab qo‘sishnlarining Termizni egallashi jarayoni bilan bog‘liq. 704 yilda arab qo‘sishnlarining Termizni egallab markaziy hokimiyatga bo‘ysunmay qolgan isyonkor Muso ibn Abdullohga qarshi kurashi davomida arab lashkarboshisi Usmon ibn Ma’sud boshchiligidagi 15000 qo‘sish shu orolga joylashtirilgan. Shu bois VIII asr boshidan Jayhundagi Termizning qaramaqarshisida joylashgan orol “Jazirati Usmon”, “Usmon oroli” deb yuritila boshlagan. O‘z navbatida “Usmon oroli”ning “Orol payg‘ambar” deb o‘zgarishi XI-XII asrlardan so‘ng yuz bergen. IX asr oxiri X asr boshlarida termizlik alloma Muhammad Hakim Termiziy

<sup>34</sup> Ибрагимов Н. Ибн Баттута и его путешествие по Средней Азии. – М., Наука, 1988, – С. 81-82.

<sup>35</sup> Руи Гансалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура(1403-1406).Перевод, предисловие и комментарии И.С.Мираковой. – М., Наука, 1996.

<sup>36</sup> Аннаев Т,Шайдуллайв Ш. Сурхондариё тарихидан лавҳалар. – Т.,Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашрёти. 1997, – Б. 83-84.

## STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

vafotidan so‘ng uning qabri atrofida yirik maqbara shakllana borib, bu joy Termiz shahri aholisining muqaddas joylaridan biriga aylana boradi<sup>37</sup>. Ayni bir paytda X-XI asrlarda orolda Zul-Kifl maqbarasi ham bunyodga keladi. Tarixiy manbalardan ma’lumki Zul-Kifl Qur’oni Karimda bu nom Muhammad alayhissalomga qadar o’tgan payg‘ambarlardan birining nisbasi. Qur’oni Karim sharhchilarining ko‘pchiligi Zul-Kiflni Yozikel nomi bilan bog‘laydilar. Bu zot asosan Suriya va Kichik Osiyoda faoliyat ko‘rsatgan Ayub payg‘ambarning o‘g‘li Bashirdir<sup>38</sup>. XVIII asrning taniqli tarixchi va geograf olimi Mahmud ibn Vali “bu yerni (Orol payg‘ambarni- A.T., B.S) Hazrati Hizr bilan xoja Hakim Termizi uchrashuv joyi ham deyishadi”, -deb ta’kidlab o’tgan<sup>39</sup>.

Mavjud tarixiy dalillarga ko‘ra, Zul-Kifl maqbarasida hijriy 279 yilda (milodiy 892-893 yillar oralig‘i) vafot etgan mashhur turkiy lashkarboshi Is’hoq ibn Kundoj dafn etilgan.

Is’hoq ibn Kundoj Abbosiylar xizmatida bo‘lgan turk amirlaridan biri. Bu lashkarboshi xalifa Musta’mid (hijriy 256-279, milodiy 870-892 yillar) va Mu’tadid (hijriy 279-289, milodiy 892-903 yillar) davrida qahramonliklari bilan mashhur bo‘lgan<sup>40</sup>.

Termiz hududidan mavjud bo‘lgan aholi manzillaridan yana biri Maymur hisoblanadi yoki al-Yoqut bo‘yicha Mayamurg-Jayhun bo‘yidagi shaharcha<sup>41</sup> T. Nafasovning fikriga ko‘ra, sug‘diyda maynmurg‘-maymurg‘; mayn-qishloq; murg‘-marg‘-o‘t, o‘lan. Shunday qilib, “Maymurg” atamasi sug‘diycha “mayn” va “marg” o‘zaklardan kelib chiqqan bo‘lib, “o‘tlarga boy qishloq” ma’nosini anglatadi<sup>42</sup>. Sh.S. Kamoliddinov bu manzilni Orol payg‘ambar g‘arbiy tarafida Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan Maymunto‘qay bilan taqqoslagan va uning fikricha Maymunto‘qay “Maymurg” atamasining talaffuzda o‘zgargan ko‘rinishidir<sup>43</sup>. Maymunto‘qay arxeologik yodgorlik sifatida L.I. Albaum tuzgan xaritadan ham joy olgan<sup>44</sup>.

Arxeolog olim T. Annaev tomonidan Maymunto‘qay ikki davrga Kushon davri va XI-XII asrlarga mansub ekanligi aniqlangan\*. Bu arxeologik ma’lumotlar Sh.S. Kamoliddinov tomonidan Maymurg‘ni Maymunto‘qay o‘rnida lokalizatsiya qilinganligini asosli ekanligiga yana bir ishoradir.

<sup>37</sup> Чориев З, Аннаев Т, Муртазоев Б, Аннаев Ж. Ал-Хаким ат-Термизий. – Т., Янги аср авлоди, 2008, – Б. 67-107.

<sup>38</sup> Аннаев Т, Шайдуллаев Ш. Сурхондарё тарихидан лавҳалар. – Т., Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти. 1997, – Б. 74-75.

<sup>39</sup> Махмуд ибн Вали. Море тайн. – Т., Фан, 1977, – С.34.

<sup>40</sup> Махмуд ибн Вали. Море тайн. – Т., Фан. 1977, – С. 115

<sup>41</sup> Камалиддинов Ш.С, “Китоб ал-Ансаб” Абу Саъда Абдалкаrima ибн Мухаммада ас-Саъмани как источник по истории и культуры Средней Азии. – Т., Фан, 1993, с. 55.

<sup>42</sup> Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Т., Ўқитувчи, 1988, – Б. 111.

<sup>43</sup> Камалиддинов Ш.С. историческая география Южного Согда и Тохаристана по археологическим источникам-IX-начала XIII вв. – Т., "Ўзбекистан", 1996, – С.121.

<sup>44</sup> Л.И.Альбаум, Балалық-тепа. – Т., Фан, 1960.

\*Археолог Т. Аннаева тадқиқотари.

## STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

Termizga tutash mavzelardan yana biri as-Sam'oniya ko'ra Ruxshabuz, al-Yoqut ma'lumotlarida Ruxshayud, Shayshak<sup>45</sup>, al-Yoqutda Busonj kabi tarixiy manzillar tilga olingan<sup>46</sup>.

Bu manzillar Chingizzon bosqini arafasida Termiz va Sarmangan (Sarminjon) oralig'ida ya'ni Salavot va unga tutash mavzelarda joylashgan bo'lgan. Temuriylar hukmronligi davrida Ruxshabuz (Ruxshayuz) deb nomlangan zarbxonada tangalar zarb qilingan<sup>47</sup>.

L.I. Albaum tomonidan XX asrning 40-50 yillari ma'lumotlari bo'yicha tuzilgan xaritada "Ro'jnoyi" degan yodgorlik va mavze o'rni bor. Bu yodgorlik va mavze Surxondaryoning o'ng qirg'og'ida Termiz shahri va Manguzar oralig'ida bo'lgan<sup>48</sup>

Davriy jihatdan Termiz atrofida IX asrdan boshlab yozma manbalarda tilga olingan tarixiy toponimlardan yana biri-Sarminjon, Jarminkon ya'ni Charmangan hisoblanadi. XII asrda bu joy Termiz viloyati tarkibida alohida "nohiya" maqomiga ega bo'lgan<sup>49</sup>. Jarminkon so'g'diy sar-bosh, yuqori, katta; mayn-man-qo'rg'on, qishloq degani bo'lib, "bosh qal'aning daryosi" yoki "qal'a yoqasidagi daryo" ma'nosini anglatadi<sup>50</sup>.

Sarminjon, Jarminkon yoki Charmangan E.V. Rtveladze tomonidan Jarqo'rg'on shahridan 4-5km janubi-g'arbda Minor qishlog'inining yonidagi Kultepa o'rnida lokalizatsiya qilingan<sup>51</sup>. Kultepada Z. Xoliqov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarga ko'ra, bu yodgorlik asosan XVI-XIX asrlar oralig'ida mavjud bo'lgan<sup>52</sup>. J. Annaev tadqiqotlariga ko'ra, IX-XIII asr boshlari Jarminkon yoki Charmangan shahri bevosita Minor qishlog'inining o'zida Jarqo'rg'on minorasi hududidan o'rin olgan. Minora atrofida XX asrning 50-60 yillarida Katta Tozlar, Kichik Tozlar va ulardan shimoliy tarafda Ermontepa kabi yodgorliklar mavjudligi qayd etilgan<sup>53</sup>.

Sulton-Saodat me'moriy ansamblining shakllanishi bevosita Termiz sayyidlarining xonadoni bilan bog'liq<sup>54</sup>. Bu maqbaralar majmuuning shakllanishi IX asr oxiri X asr boshlaridan XX asr boshlariga qadar davom etgan.

<sup>45</sup> Камалиддинов Ш.С. Саъмани и его сведенья о Термезе// Краеведение Сурхандаръи. – Т., "Узбекистан", 1989, – С.115.

<sup>46</sup> Камалиддинов Ш.С. О средневековых городах области Термиза // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1993, 2, – С. 40-41.

<sup>47</sup> Камалиддинов Ш.С. О средневековых городах области Термиза// Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1993, 2, – Б. 41.

<sup>48</sup> Альбаум Л. И. Балалик-тепа – Т., Фан, 1960.

<sup>49</sup> Камалиддинов Ш.С. историческая география Южного Согда и Тохаристана по араболзычным источникам. – Т., "Узбекистан" 1996, – С. 132.

<sup>50</sup> Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Т., Ўқитувчи 1988, – Б. 167.

<sup>51</sup> Аршавская З.А., Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. Средневековые памятники Сурхандаръи. – Т., Издательство литературы и искусства имени Г. Гуляма. 1982, – С. 40.

<sup>52</sup> Холиков З.Э. Термез и Чаганиан в позднем средневековье. Автореферат канд. Диссер.... Самарканд. – С. 19.

<sup>53</sup> Аннаев Ж., Сафаров Р. Шимоли-ғарбий Тохаристон ал-Хаки ат-Термизий даврида. // Ал-Хаким ат-Термизий ва унинг даври мавзуидаги халқaro илмий конференция маъruzasi matnlari баёни. Термиз, 2004, – Б. 70.

<sup>54</sup> Семенов А.А. Произхождение германских сейдов и их древняя усыпальница "Султан-саодот". Протоколы Туркестанского кружка любителей археологии. Год XVII (XIX)-Т., 1914, – С. 182-187.

## STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

A.A. Semenov Sulton-Saodat atamasini ayol nomi bilan bog‘lagan. J.Mirzaevga ko‘ra, Termiz sayyidlari naqibining rasmiy unvoni “Sulton-Saodat” (“Sayyidlar Sultoni”) atamasi ishlatilgan<sup>55</sup>.

Sadat (birligi sayyid)- “sayyidlar” ma’nosini bildiradi. Sulton esa “hujjat”. Sulton-Sadat yohud Sulton us-Sodot A. Xolmirzaev ta’rificha “sayyidlar hujjati”, ularga berilgan muhim dalil demakdir<sup>56</sup>. Bizningcha Termiz sayyidlarining Islom dunyosida tutgan o‘rnidan kelib chiqib, bu atama “Sayyidlar Sultoni” deb izohlansa maqsadga muvofiqdir.

Termiz hududidagi o‘zining qadimgi nomini saqlab kelgan mavzelardan yana biri Salavot hisoblanadi. Bu nom bizga ma’lum yozma manbalarga ko‘ra, XVII asrdan tilga olingan. Mahmud ibn Vali asarida Salavot Termizning “hukmdor qarorgohi, bozor, madrasa, hashamatli juma masjidi va baland minoraga” ega mavzelardan biri sifatida tariflangan<sup>57</sup>.

Xalq etimologiyasi va shuningdek A.A Semenov tаддиқотларida Salavotga “Soli” yoki “Solih” degan shaxs asos solgan va keyinchalik bu etnonim “Soliobod” shaklida toponimiga aylangan.

Salavot Termiz sayyidlari va keyinchalik Salavot xojalari azaldan istiqomat qilgan joy. XX asr boshida A.A. Semenov ayni shu Salavot hojalaridan Termiz sayyidlari shajarasi bitilgan “Sa’diya” nomli qo‘lyozmani sotib olgan va uning ba’zi bir qismlarini nashr qilgan<sup>58</sup>. Salavot-payg‘ambarimiz S.A.V. “Salavot” aytilgan joy ma’nosini anglatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Annaev T., Shaydullaev Sh. Surxondarё tarixidan lavxalar. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriёti, 1991.
2. Annev T.D Ranesrednevekovie poseleniya Severnogo Toxaristana. –T.: Fan, 1988.
3. Kamaliddinov Sh.S. O srednevekovqx gorodax oblasti Termiza// O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1993.
4. Pidaev Sh. Qadimiy Termiz. –T.: Fan, 2001.
5. Pidaev Sh. R. Tarmita-Termiz 1220 yilgacha: shaharning kelib chiqishi va tadrijiy rivojlanishi// Termiz-buyuk yo‘llar chorrahasidagi ko‘hna va yangi shahar. –T.: Sharq, 2001.
6. Pidaev Sh.R. Termizshox fojeasi// Termiz: tarixiy taddiқotlar ilmiy xulosalar. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriёti. 2001.

<sup>55</sup> Мирзаев Дж. З. Собственные имена в системе этнической атрибуции средневекового Термеза//. “Ўзбек халқининг келиб чиқиши: илмий-методологик ёндашувлар, этногенетик ва этник тарих” мавзусидаги республика илмий-назарий семинар материаллари Т., 2004. – Б.51-53.

<sup>56</sup> Холмирзаев А. Султон-Саодат эмас Султон-Садат// Термиз тарихидан лавҳалар. – Т., “San’at jurnali” нашриёти. 2008, 90-93 бетлар

<sup>57</sup> Махмуд ибн Вали. Море тайн. – Т., Фан, 1977, – С. 34.

<sup>58</sup> Семенов А.А. Происхождение термезских сейидов и их древняя усыпальница “Султан-садат” // Протоколы Туркестанского краевого любителей археологии. Год XVII (XIX). – Т., 1914, – С. 3.